


## Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

*(2019 yil yanvar- sentyabr dastlabki ma'lumot)*


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 9087,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1136,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,1%), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 7950,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 893,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,5 %)ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Qoshtepa, Oltiariq, Uchko'prik tumanlarida qayd etildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,1 %ga o'sdi va 1136,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,5 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 7950,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 103,0 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,5 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (99,8%), Farg`ona (99,4%) So'x (99,4) Furqat (98,4 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko'riniib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 12,5% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg'ona shaxar (27,3%), Bag'dod tumani (19,3%) va Qo'qon (17,5%) shaxarlariida kuzatilgan.

**Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1136,8</b>	<b>119,1</b>	<b>7950,2</b>	<b>103,0</b>
<b><i>shaharlar</i></b>				
Farg'ona	<b>620,5</b>	<b>125,9</b>	<b>1 651,1</b>	<b>102,2</b>
Qo'qon	<b>241,1</b>	<b>105,6</b>	<b>1 136,6</b>	<b>105,2</b>
Quvasoy	<b>10,6</b>	<b>70,6</b>	<b>205,2</b>	<b>106,8</b>
Marg'ilon	<b>78,2</b>	<b>114,3</b>	<b>652,6</b>	<b>107,1</b>
<b><i>tumanlar</i></b>				
Oltiariq	<b>11,8</b>	<b>393,6</b>	<b>334,5</b>	<b>101,1</b>
Qo'shtepa	<b>0,8</b>	<b>136,6</b>	<b>445,1</b>	<b>101,0</b>
Bag'dod	<b>59,7</b>	<b>281,3</b>	<b>249,6</b>	<b>89,6</b>
Buvayda	<b>6,2</b>	<b>112,7</b>	<b>317,0</b>	<b>103,2</b>
Beshariq	<b>5,4</b>	<b>36,4</b>	<b>326,2</b>	<b>104,6</b>
Quva	<b>34,9</b>	<b>267,7</b>	<b>402,2</b>	<b>98,6</b>
Uchko'prik	<b>12,2</b>	<b>229,2</b>	<b>332,5</b>	<b>101,5</b>
Rishton	<b>12,7</b>	<b>56,0</b>	<b>289,5</b>	<b>107,4</b>
So'x	<b>1,0</b>	<b>165,6</b>	<b>151,6</b>	<b>101,3</b>
Toshloq	<b>15,9</b>	<b>86,5</b>	<b>249,7</b>	<b>104,1</b>
O'zbekiston	<b>7,0</b>	<b>101,2</b>	<b>263,0</b>	<b>103,3</b>
Farg'ona t	<b>2,2</b>	<b>10,6</b>	<b>340,0</b>	<b>107,8</b>
Dang'ara	<b>6,2</b>	<b>107,5</b>	<b>200,6</b>	<b>101,4</b>
Furqat	<b>2,4</b>	<b>104,7</b>	<b>150,0</b>	<b>103,6</b>
Yozyovon	<b>8,0</b>	<b>90,3</b>	<b>253,2</b>	<b>102,5</b>

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2450,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-sentyabr oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Farg'ona (7951,3 ming.so'm), Qo'qon (5506,2 ming. so'm) va Marg'ilon (3141,8 ming.so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (1150,0 ming.so'm), Dang'ara (1212,5 ming.so'm) va Toshloq (1337,6 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlari va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati <i>shaharlar</i></b>	<b>2450,6</b>	<b>102,9</b>
Farg'ona	7951,3	105,7
Qo'qon	5506,2	103,8
Quvasoy	2340,5	102,6
Marg'ilon	3141,8	106,4
<b><i>tumanlar</i></b>		
Oltiariq	1664,1	101,9
Qo'shtepa	2385,8	99,2
Bag'dod	1462,4	101,2
Buvayda	1443,4	101,4
Beshariq	1476,8	99,8
Quva	1719,9	102,1
Uchko'prik	1534,3	101,5
Rishton	1520,2	101,5
So'x	1991,7	99,7
Toshloq	1337,6	100,8
O'zbekiston	1150,0	101,4
Farg'ona t	1632,8	100,1
Dang'ara	1212,5	99,8
Furqat	1312,0	102,1
Yozyovon	2405,3	100,2


Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,7 % ni tashkil etib, 150,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,7 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**FARG`ONA VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
(2019 yil yanvar-sentyabr)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3740,0 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 108,5 % ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko`ra 2966,8 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 108,3 % ga o`sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 79,3 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg`ilon shahar, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq va Quva tumanlari (100,0% dan) hamda Oltiariq (99,9%), Dang`ara (99,8) Uchko`prik (99,4%) tumanlarida yuqori bo`lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




█ Yirik korxonadalar  
█ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 20,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Farg`ona (49,5%), Bog`dod (16,7%) tumanida hamda Qo'qon (14,6%) shahrida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3740,0</b>	<b>108,5</b>	<b>773,1</b>	<b>109,3</b>	<b>2966,8</b>	<b>108,3</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	1 393,8	116,1	689,4	106,8	704,3	126,8
Qo'qon	499,3	118,3	72,9	256,2	426,4	108,4
Quvasoy	62,2	108,8	-	-	62,2	108,8
Marg'ilon	492,9	107,6	0,1	5,9	492,8	107,9
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	74,4	106,0	0,1	54,0	74,3	106,1
Qo'shtepa	5,0	108,9	0,0		5,0	108,9
Bag'dod	38,4	114,6	6,4	27,1	32,0	326,4
Buvayda	54,8	108,5	-	-	54,8	108,5
Beshariq	40,7	106,7	-	-	40,7	106,7
Quva	27,4	100,6	-	-	27,4	100,6
Uchko'prik	123,8	96,9	0,8	130,3	123,1	96,7
Rishton	16,3	106,5	0,4	100,4	15,9	106,6
So'x	2,4	114,0	0,1	37,2	2,3	127,2
Toshloq	195,4	108,3	1,9	115,7	193,5	108,2
O'zbekiston	468,9	89,5	0,2	58,7	468,8	89,6
Farg'ona t	30,1	91,6	0,2	4,2	29,9	106,8
Dang'ara	165,7	108,7	0,4	141,7	165,3	108,6
Furqat	19,2	92,5	0,0	-	19,2	92,5
Yozyovon	29,2	97,8	0,3	124,5	29,0	97,6

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiy o'sish sur`ati Ozbekiston (89,5%) Furqat (92,5%) va Farg'ona (91,6%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18